

INVESTITSION LOYIHALAR BO'YICHA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH

Shukurov Zafar Nazarovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Moliya va bank ishi" kafedrası katta o'qituvchisi.

Zafar Shukurov 3250@gmail.com

Tojiddinov Xusan

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultiteti Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi IV-bosqich talabasi.

Tel:+998 97 153 26 04

E-mail:tojiddinovhusan20@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20637631>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida korxonalar va tashkilotlardagi investitsion faoliyat jarayonlari haqida o'rganiladi. Investitsion faoliyat va unga oid qarorlarning qabul qilinishi tahlil qilinib korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy va strategik rejaviy holatlari ham o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Investitsion loyiha, risk, samaradorlik, qarorlar, baholash

Korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatida investitsion faoliyat alohida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Investitsion faoliyatni samarali tashkil etish masalasi esa bugungi keskin raqobat sharoitida iqtisodiyot va moliya sohasidagi mutaxassislardan chuqur bilim va malakani talab etmoqda. Bunda asosiy e'tibor investitsion faoliyat samaradorligini barcha omillarni hisobga olgan holda baholash masalasiga qaratilmoqda. Korxonalarda investitsion faoliyatni tashkil etishda investitsion strategiyani belgilab olish masalasi ham kun tartibidagi masala hisoblanadi. Investitsion strategiya korxonani rivojlantirishning umumiy vazifalarida belgilangan investitsion faoliyatning uzoq muddatli maqsadlari va investitsion yondashuvlar tizimi, shuningdek, qo'yilgan maqsadlarga erishishning yuqori darajada samarali yo'llarini tanlashni anglatadi. Investitsion strategiya korxonalar investitsion faoliyatini istiqbolli boshqarishning samarali instrumenti hisoblanadi hamda korxonani rivojlantirishning konsepsiyasini o'zida aks ettiradi.

Investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin. Investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ❖ qonuniylik;
- ❖ oshkoralik va ochiqlik;
- ❖ investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi;
- ❖ adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi;
- ❖ investorlarga nisbatan kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- ❖ investorlarning vijdonlilik prezumpsiyasi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son

Hozirgi zamonaviy sharoitda investitsion strategiyani yuritish korxonaning muvaffaqiyatli va samarali rivojlanishini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqilgan investitsion strategiya quyidagilarga imkon beradi:

- korxonaning oldindagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining uzoq muddatli umumiy va investitsion maqsadlarini amalga oshirish mexanizmini ta'minlaydi;
- korxonaning investitsion imkoniyatlarini real baholash imkonini beradi;
- investitsion imkoniyatlardan maksimal foydalanish va investitsion resurslar aylanuvchanligini oshirish imkonini beradi;
- tashqi muhit o'zgarishlari jarayonida investitsion muhitda paydo bo'ladigan yangi istiqbolli investitsion imkoniyatlardan tezkorlik bilan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi;
- tashqi investitsion muhitlar rivojlanishining mumkin bo'lgan variantlarini prognozlash va korxonaga faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sirini kamaytirish imkonini beradi;
- korxonaga investitsion faoliyatini strategik, taktik (joriy) va operativ bo'lgan shqarish o'rtasidagi aniq o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi;
- korxonaning raqobat muhitidagi ustunligini belgilab beradi;
- eng muhim strategik investitsion qarorlarni amalga oshirish doirasida investitsion faoliyatning mos siyosati belgilanadi.²

Investitsion strategiya — bu moliyaviy maqsadlarga (daromad olish, kapitalni ko'paytirish) erishish uchun mablag'larni aktivlarga (aksiyalar, ko'chmas mulk, biznes) joylashtirishning tizimli rejasi. U tavakkalchilik darajasini boshqarish, vaqt gorizontalini belgilash va aktivlarni diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy mustaqillikka erishishga xizmat qiladi.³Tadqiqotda investitsion faoliyat samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

1. Investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati – korxonaning investitsion faolligini ko'rsatadi;
2. Rentabellik darajasi – sarmoyalarning moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash uchun;
3. Korporativ boshqaruv tamoyillari – shaffoflik, javobgarlik va manfaatdor tomonlar bilan aloqadorlik darajasi orqali baholandi.⁴

Investitsiyalar samaradorligini baholash pul oqimlari prognozidan foydalanilgan holda hisoblanadigan sof joriy qiymat, investitsiyalar rentabelligi (profitability investment – PI), daromadlilikning ichki me'yori, investitsiyalarni qoplash muddati (payback period – PP), yillik foiz stavkasi(annualized percentage rate) bilan amalga oshiriladi. Bugungi kunda korporativ moliyani boshqarish amaliyotida ko'pincha investitsiyalar samaradorligini baholashdagi zamonaviy yondashuvlarni o'zida aks ettiruvchi dinamik mezonlardan foydalaniladi. Ularning qo'llanilishi qarorlar qabul qilish jarayonida talab qilinadigan daromadlilik me'yori, vaqt bo'yicha pul mablag'lari qiymati, loyiha risklilik darajasi, kapital bahosi kabi muhim omillarni hisobga olish va muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Dinamik metodlar ba'zida diskontli metodlar deb ataladi va ular investitsion loyihani amalga oshirish bilan bog'liq pul oqimlarining joriy miqdorini aniqlashga xizmat qiladi. Bu jarayon quyidagilarga imkon beradi:

² Korporativ moliya: Darslik. Elmirezayev S. – T.: “ Iqtisod-Moliya ”, 2019 yil, 364 bet.

³ Wikipedia.uz

⁴ Karimov, A. (2022). “Turizm korxonalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish omillari.” Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №3

- ✓ loyihani amalga oshirishning har bir davri oxiridagi pul oqimini aniqlash;
- ✓ mos davrlar bo'yicha olingan barcha ijobiy pul oqimlarini qayta investitsiyalash imkoniyatlari;
- ✓ loyiha bo'yicha qo'yilmaga mos foiz stavkalarida aks etgan loyiha samaradorligini baholash⁵.

Investitsion risk — bu investitsiya kiritilgan mablag'larning qaytmasligi yoki rejalashtirilgan daromad darajasiga erishilmasligi xavfidir. Risklar investitsiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularni butunlay yo'q qilish imkonsiz, ammo samarali boshqarish orqali kamaytirish mumkin. Investitsion risklar turli omillar ta'sirida yuzaga keladi va ular iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy hamda tashkiliy sabablar bilan bog'liq bo'ladi.

Investitsion risk — bu investitsiya kiritilgan mablag'larning qaytmasligi yoki rejalashtirilgan daromad darajasiga erishilmasligi xavfidir. Risklar investitsiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularni butunlay yo'q qilish imkonsiz, ammo samarali boshqarish orqali kamaytirish mumkin. Investitsion risklar turli omillar ta'sirida yuzaga keladi va ular iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy hamda tashkiliy sabablar bilan bog'liq bo'ladi. Investitsiya qarorlari — bu investor tomonidan kapitalni ma'lum loyiha yoki aktivlarga joylashtirish to'g'risida qabul qilinadigan qarorlardir. Ushbu qarorlar odatda uzoq muddatli bo'lib, ularning natijasi vaqt o'tishi bilan namoyon bo'ladi.

Investitsiya qarorlarining asosiy maqsadi:

- maksimal daromad olish
 - riskni minimallashtirish
 - kapital qiymatini oshirish
- Korxonalar uchun investitsiya qarorlari strategik rivojlanish, ishlab chiqarishni kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Investitsiya qarorlarini qabul qilish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Investitsiya g'oyasini aniqlash
2. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish
3. Moliyaviy hisob-kitoblar (NPV, IRR)
4. Risklarni baholash
5. Qaror qabul qilish
6. Amalga oshirish va monitoring

NPV — bu kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymati bilan boshlang'ich investitsiya o'rtasidagi farqdir.

- Agar $NPV > 0$ → loyiha foydali
- Agar $NPV < 0$ → loyiha zararli

NPV usuli investitsiya qarorlarida eng ishonchli usullardan biri hisoblanadi, chunki u pulning vaqt qiymatini hisobga oladi va loyiha qiymatini aniqlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son;
2. Korporativ moliya: Darslik. Elmirzayev S. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019 yil, 364 bet;
3. Karimov, A. (2022). "Turizm korxonalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish omillari." Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №3;

⁵ Korporativ moliya: Darslik. Elmirzayev S. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019 yil, 364 bet.

4. Lex.uz
5. Wikipedia.uz

